



DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKDA IQTISODIYOT TARMOQLARINING MODERNIZATSIYASI VA DIVERSIFIKATSIYASI NAZARIYALARI

Bozorov Adxam Narzullayevich

Aniq Va Ijtimoiy Fanlar Universiteti 2-Bosqich Magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat-xususiy sheriklik (DXSh) sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarining modernizatsiyasi va diversifikatsiyasi nazariyalari xalqaro ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi o‘rganilib, infratuzilma rivoji, sanoat tarkibining yangilanishi, investitsion muhitni yaxshilash hamda innovatsion transformatsiya jarayonlarida DXSh mexanizmlarining roli chuqur yoritiladi. Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarining bir yoqlama rivojlanishi, kapital yetishmovchiligi, institutsional zaifliklar kabi muammolar ochib berilib, ularni bartaraf etishning samarali yo‘llari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: davlat-xususiy sheriklik, iqtisodiy modernizatsiya, diversifikatsiya, infratuzilma rivoji, investitsiya muhiti, innovatsion iqtisodiyot, sanoat siyosati, iqtisodiy o‘sish, institutsional islohotlar

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanishi bevosita ularning modernizatsiya darajasi va diversifikatsiya ko‘lamiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyotning bir yoki ikki tarmoqqa haddan tashqari tayanishi uzoq muddatli barqarorlikni ta‘minlay olmaydi, aksincha tashqi shoklarga nisbatan yuqori zaiflikni yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini qo‘llash orqali iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan yangilash va diversifikatsiya qilish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xalqaro tajriba, xususan, Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlarda DXSh asosida amalga oshirilgan infratuzilma va sanoat loyihalari iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini sezilarli darajada oshirganini ko‘rsatadi. Masalan, global miqyosda DXSh loyihalariga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi yiliga o‘rtacha 300–350 milliard AQSh dollarini tashkil etib, ularning katta qismi transport, energetika va raqamli infratuzilma sohalariga to‘g‘ri keladi. Bunday yondashuv orqali davlat moliyaviy yukini kamaytirish, xususiy sektor esa yuqori daromadli loyihalarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada, tomonlar manfaatlari uyg‘unlashgan holda iqtisodiy tizim samaradorligi oshadi.

Shu bilan birga, iqtisodiyot tarmoqlarining modernizatsiyasi va diversifikatsiyasi jarayonida bir qator tizimli muammolar ham kuzatiladi. Xususan, institutsional bazaning yetarli darajada shakllanmaganligi, huquqiy mexanizmlarning noaniqligi, loyihalarni tanlash va baholashdagi kamchiliklar DXSh samaradorligini pasaytiradi.





Bundan tashqari, risklarni noto‘g‘ri taqsimlash, shaffoflik darajasining pastligi hamda davlat va xususiy sektor o‘rtasida ishonchning yetishmasligi ko‘plab loyihalarning muvaffaqiyatsiz yakunlanishiga olib kelmoqda. Ushbu muammolarni hal etish uchun zamonaviy nazariy yondashuvlar asosida samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish talab etiladi.

Iqtisodiyot tarmoqlarining modernizatsiyasi va diversifikatsiyasi nazariyalari uzoq yillar davomida shakllanib kelgan bo‘lib, ularning markazida iqtisodiy o‘shishning sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tishi masalasi turadi. Strukturaviy o‘zgarishlar nazariyasiga ko‘ra, iqtisodiyot qishloq xo‘jaligidan sanoat va xizmatlar sektoriga o‘tish orqali yuqori samaradorlikka erishadi. Biroq ushbu o‘tish jarayoni o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi, balki davlat siyosati, investitsiya oqimlari va texnologik yangilanishlar bilan chambarchas bog‘liq. Aynan shu nuqtada davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi, chunki ular kapital, bilim va boshqaruv tajribasini birlashtirish imkonini beradi. Agar mazkur jarayon to‘g‘ri tashkil etilsa, iqtisodiy tizimning tarkibiy muvozanati ta‘minlanadi, aks holda esa resurslar noto‘g‘ri taqsimlanib, samarasizlik yuzaga keladi.


Endogen o‘shish nazariyasi doirasida esa innovatsiyalar, inson kapitali va texnologiyalar asosiy o‘shish drayverlari sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, DXSh modeli orqali ilmiy-tadqiqot faoliyatiga xususiy sektorni jalb qilish modernizatsiya jarayonini sezilarli tezlashtiradi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ilmiy tadqiqot va ishlanmalar (R&D) xarajatlarining YAIMga nisbatan ulushi 2–4% atrofida bo‘lsa, iqtisodiyotning yuqori texnologik segmentlari tez rivojlanadi. Aksincha, ushbu ko‘rsatkich past bo‘lgan mamlakatlarda diversifikatsiya sust kechadi. Shu sababli, davlat tomonidan rag‘batlantiruvchi siyosat yuritilmas ekan, xususiy sektor innovatsion faoliyatga yetarlicha sarmoya kiritmaydi. Bu esa modernizatsiya jarayonining sekinlashuviga olib keladi.

Davlat-xususiy sheriklikning nazariy asoslari samarali risk taqsimoti va manfaatlar uyg‘unligiga tayanadi. Amaliyotda esa bu tamoyillar ko‘pincha to‘liq ishlaymaydi, chunki loyihalarda risklar noto‘g‘ri baholanadi yoki bir tomon zimmasiga ortiqcha yuk yuklanadi. Masalan, infratuzilma loyihalarida talab risklari ko‘pincha davlat zimmasiga tushadi, bu esa byudjet barqarorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, xususiy sektor tomonidan kutilgan daromadlar ta‘minlanmasa, loyiha samaradorligi pasayadi. Shunday vaziyatda savol tug‘iladi: risklarni qanday qilib optimal taqsimlash mumkin? Ilmiy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, har bir risk uni boshqarish imkoniyati yuqori bo‘lgan tomon zimmasiga yuklatilishi lozim. Bu prinsipni to‘liq amalga oshirish esa huquqiy va institutsional mexanizmlarning mukammalligini talab qiladi.

Diversifikatsiya nazariyasi iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirish orqali umumiy barqarorlikni oshirishni nazarda tutadi. Xalqaro savdo statistikasi shuni ko‘rsatadiki, eksport tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushi 50% dan ortiq bo‘lgan davlatlarda iqtisodiy o‘shish barqaror va uzoq muddatli bo‘ladi. Aksincha,

xom ashyo eksportiga tayanadigan mamlakatlarda iqtisodiy sikllar keskin tebranadi. Shu nuqtai nazardan, DXSh orqali sanoatni chuqur qayta ishlashga yo‘naltirilgan loyihalarni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Biroq, bu jarayonda muhim muammo sifatida texnologik qaramlik yuzaga keladi, ya’ni rivojlanayotgan mamlakatlar ko‘pincha import texnologiyalariga bog‘liq bo‘lib qoladi. Ushbu muammoni hal etish uchun mahalliy innovatsion ekotizimni rivojlantirish zarur.

1-diagramma. O‘zbekistonda DXSh loyihalarining tarmoqlar bo‘yicha taqsimoti



Institutsional iqtisodiyot nuqtai nazaridan qaraganda, DXSh samaradorligi davlat boshqaruvi sifatiga bevosita bog‘liq. Agar shaffoflik past bo‘lsa, korrupsiya xavfi ortadi va investorlar ishonchi pasayadi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, institutsional sifati yuqori bo‘lgan mamlakatlarda DXSh loyihalarining muvaffaqiyat darajasi 70–80% ni tashkil etsa, zaif institutlarga ega davlatlarda bu ko‘rsatkich 40–50% atrofida qolmoqda. Shu sababli, samarali boshqaruv tizimini yaratish modernizatsiya jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Bunda raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, ochiq ma’lumotlar bazalarini yaratish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish muhim rol o‘ynaydi.

Global tajribani tahlil qilish jarayonida yana bir muhim jihat – infratuzilma rivojining iqtisodiy diversifikatsiyaga ta’siri aniqlanadi. Transport va logistika tizimlarining rivojlanganligi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va yangi bozorlar ochilishiga xizmat qiladi. Masalan, Osiyo taraqqiyot banki hisob-kitoblariga ko‘ra, infratuzilmaga yo‘naltirilgan investitsiyalar 1 dollar uchun o‘rtacha 1,5–2 dollar iqtisodiy qo‘shimcha qiymat yaratadi. Shu sababli, DXSh asosida infratuzilma loyihalarini kengaytirish iqtisodiy modernizatsiyaning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi.



Shu bilan birga, ekologik barqarorlik masalasi ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish modeli "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga asoslanib, energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanishni talab etadi. Agar DXSh loyihalarida ekologik standartlar hisobga olinmasa, qisqa muddatli iqtisodiy foyda uzoq muddatli zarar bilan almashishi mumkin. Shu bois, xalqaro amaliyotda "yashil DXSh" konsepsiyasi keng qo'llanilmoqda. Bu yondashuv orqali iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasida muvozanat ta'minlanadi.

Mazkur tadqiqotda davlat-xususiy sheriklik sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarining modernizatsiyasi va diversifikatsiyasi nazariyalarini chuqur o'rganish maqsadida kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy metodlarning o'zaro uyg'unligi ta'minlanib, masalani har tomonlama tahlil qilishga alohida e'tibor qaratildi. Avvalo, iqtisodiy adabiyotlarni tahlil qilish (literature review) metodi asosida xalqaro ilmiy maqolalar, Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi va Osiyo taraqqiyot banki kabi tashkilotlar hisobotlari o'rganildi. Ushbu manbalar orqali DXShning nazariy asoslari, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari va global tajribadagi asosiy tendensiyalar aniqlab olindi.

Tahlil jarayonida qiyosiy tahlil (comparative analysis) metodidan keng foydalanildi. Bu usul orqali rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda DXSh loyihalarining amalga oshirilish mexanizmlari, ularning natijalari hamda iqtisodiyotga ta'siri solishtirildi. Natijada, turli iqtisodiy modellarda modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlari qanday farq qilishi aniqlanib, samarali amaliyotlar ajratib olindi. Shu bilan birga, statistik tahlil metodi asosida xalqaro ma'lumotlar bazalaridagi ko'rsatkichlar o'rganilib, investitsiyalar hajmi, infratuzilma rivoji va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik aniqlashtirildi.

Tadqiqot natijalari davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilishda muhim strategik vosita ekanligini tasdiqlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, DXSh asosida amalga oshirilgan loyihalar infratuzilma sifati, ishlab chiqarish samaradorligi va investitsion faollikni sezilarli darajada oshiradi. Xalqaro tajribaga tayangan holda aniqlanishicha, DXSh loyihalari keng qo'llanilgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtacha 1,5–2 barobar yuqori bo'lib, ayniqsa transport, energetika va raqamli infratuzilma sohalarida sezilarli natijalar kuzatiladi. Shu bilan birga, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish ulushi ortib borishi iqtisodiy diversifikatsiyaning muhim natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Olingan natijalar iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarish jarayonlari DXSh orqali tezlashishini ko'rsatadi. Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat resurslari cheklangan sharoitda xususiy sektor kapitalini jalb qilish orqali yangi sanoat tarmoqlarini shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi. Biroq, bu jarayon har doim ham barqaror kechmaydi. Ayrim hollarda investitsiyalar asosan daromadlilikni yuqori bo'lgan tarmoqlarga yo'naltiriladi va bu iqtisodiy nomutanosiblikni kuchaytiradi. Shu



sababli savol tug'ildi: diversifikatsiya jarayonida qanday qilib muvozanatni saqlash mumkin? Natijalar shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan strategik yo'naltirilgan siyosat yuritilmas ekan, DXSh mexanizmlari to'liq samaradorlikka erisha olmaydi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, DXSh loyihalarining muvaffaqiyati bevosita institutsional muhitga bog'liq. Kuchli huquqiy baza va shaffof boshqaruv tizimi mavjud bo'lgan mamlakatlarda loyihalarning samaradorligi yuqori bo'ladi. Aksincha, institutsional zaifliklar mavjud bo'lgan holatlarda risklar noto'g'ri taqsimlanadi va loyihalar iqtisodiy jihatdan kutilgan natijani bermaydi. Bu esa iqtisodiy resurslarning samarasiz sarflanishiga olib keladi. Tadqiqot natijalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, DXShni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun nafaqat moliyaviy resurslar, balki samarali boshqaruv mexanizmlari ham zarur.

Mazkur tadqiqot natijalari davlat-xususiy sheriklik (DXSh) iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilishda strategik ahamiyatga ega bo'lgan mexanizm ekanligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Nazariy va empirik tahlillar shuni ko'rsatdiki, DXSh orqali davlat va xususiy sektor resurslari samarali birlashtirilgan taqdirda iqtisodiy o'sish tezlashadi, infratuzilma sifati yaxshilanadi hamda yuqori qo'shilgan qiymatli tarmoqlar rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Shu bilan birga, iqtisodiy tizimning bir yoqlama rivojlanish xavfi kamayib, tarkibiy muvozanat ta'minlanadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, iqtisodiyot tarmoqlarining modernizatsiyasi faqat investitsiya jalb qilish bilan cheklanmaydi, balki innovatsion rivojlanish, inson kapitalini oshirish va institutsional islohotlar bilan uyg'un holda amalga oshirilishi zarur. Agar bu omillar yetarli darajada hisobga olinmasa, DXSh loyihalari qisqa muddatli natijalar berib, uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlay olmaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, iqtisodiy siyosatni kompleks tarzda olib borish, ya'ni texnologik yangilanish va tarkibiy o'zgarishlarni bir vaqtning o'zida amalga oshirish muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To'xtayev A.X. O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklikning huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali. 2021. №2. B. 45–52.
2. Karimov B.R. Davlat-xususiy sheriklik asosida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning dolzarb masalalari. "Moliyaviy tahlil" jurnali. 2022. №3. B. 61–67.
3. Yusufova L.G. O'zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sheriklik sohasida me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish masalalari. Toshkent: ilmiy maqola, 2024.
4. "O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligini oshirish masalalari". Journal of Fundamental Studies. 2026. Vol.4, No.1. B. 120–128.





5. “Davlat-xususiy sheriklik (PPP) va iqtisodiy samaradorlikka ta’siri”. “Iqtisodiyot” ilmiy jurnali. 2026.
6. “Neft va gaz sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish masalalari”. “Innovatsion iqtisodiyot” jurnali. 2024.